



IJTIMOIIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI

Azimova Tamara Abrorovna

Azimova1301@gmail.com

88.865-66-68

Shokirov Humoyiddin Baxriddin o'g'li

shokirovhumoyiddin@gmail.com

99.944-38-53

Erkinov Bobur Botirali o'g'li

Erkinovbobur75@gmail.com

90.018-78-94

Toshmirzayev Nodirbek Odilovich

nodirbekodilovichintoshmirzayev@gmail.com

99.288-26-08

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7229140>

Abstract: The emergence and development of economic relations acquires its own characteristics at different stages of the development of society. Economic relations do not freeze in one place. They are constantly changing and developing. Accordingly, the stages of socio-economic development and different approaches to their knowledge, social and technological methods of production, and concepts of the economic system are considered in detail in this topic. During the analysis, economic system models and their characteristics are shown. Production always takes place within a specific form of ownership. Therefore, a special place is devoted here to issues such as the nature of property relations, the economic content of property forms, and the ways and methods of changing property forms in the process of forming a market economy.

Key words: methods of production, socio-economic relations, productive forces.

Аннотация: Возникновение и развитие экономических отношений приобретает свои особенности на разных этапах развития общества. Экономические отношения не замирают на одном месте. Они постоянно меняются и развиваются. Соответственно, в данной теме подробно рассматриваются этапы социально-экономического развития и разные подходы к их познанию, социальные и технологические способы производства, концепции экономической системы. В ходе анализа показаны модели экономической системы и их характеристики. Производство всегда осуществляется в рамках определенной формы собственности. Поэтому особое место здесь уделено таким вопросам, как природа отношений собственности, экономическое содержание форм





собственности, пути и методы изменения форм собственности в процессе формирования рыночной экономики.

Ключевые слова: способы производства, социально-экономические отношения, производительные силы.

Annotatsiya: Iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Iqtisodiy munosabatlar bir joyda o'zgarishsiz qotib turmaydi. Ular doimo o'zgarib, rivojlanib boradi. Shunga ko'ra, mazkur mavzuda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqich lari va ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar, ishlab chiqarishning ijtimoiy va texnologik usullari hamda iqtisodiy tizim tushunchalari, batafsil ko'rib chiqiladi. Tahlil davomida iqtisodiy tizim modellari va ularning xususiyatlari ko'rsatib beriladi. Ishlab chiqarish har doim ma'lum mulkchilikning aniq shakli doirasida sodir bo'ladi. Shuning uchun bu yerda mulkchilik munosabatlarning mohiyati, mulk shakllarining iqtisodiy mazmuni va bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida mulk shakllarini o'zgartirish yo'llari va usullari kabi masala larga alohida o'rin ajratiladi.


Kalit so'zlar: ishlab chiqarish usullari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar, ishlab chiqaruvchi kuchlar.

Kishilik jamiyati ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'zaro birligi hamda ziddiyati asosida taraqqiy etib borib, uning turli bosqichlariga o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlar muvofiq keladi. Insoniyat taraqqiyoti bosqichlari va har bir bosqichga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlarni o'rganish iqtisodiy jarayonlarni, ularni o'zgaruvchan ekanligini bilishda muhim ahamiyatga egadir.

Taraqqiyot bosqichlarini bilishda turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarixiy-formatsion yondashuv;
- madaniylashish (sivilizasiya) darajasi jihatdan yondashuv; -texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondashuv;
- sosial-iqtisodiy shakllar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga tarixiy-formatsion yondashuvda ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga e'tibor berilgan.

Ishlab chiqarish usuli ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlarning birligidan iborat. Ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birgalikda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, ishlab chiqaruvchi kuchlar bu ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan






tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik buyumlashgan elementlar tizimidan iborat. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezon va umumiy ko'rsatkichidir.

Odamlar ishlab chiqarish jarayonida faqat tabiat ashyolari va boshqa moddiy ashyolar bilan emas, shu bilan birga o'zaro bir-biri bilan ham munosabatlarda bo'ladilar, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadilar. Bunda ishlab chiqarishda tarkib topadigan tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bir biridan farq qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar kishilar o'rtasidagi aloqalar sifatida namoyon bo'lib, shu bilan birga ishlab chiqarish holatini bevosita tavsiflaydi, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti muayyan bosqichlarining xususiyatlarini va ularning ijtimoiy uyg'unlashuvini aks ettiradi. Bu masalan, mehnat taqsimoti uni ixtisoslashtirish va kooperasiyalash, ishlab chiqarishning to'planishi hamda uyg'unlashtirilishidir.

Ishlab chiqarish har doim muayyan ijtimoiy shaklga ega bo'ladi. Bu ijtimoiy shakl ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltiradi, ularning mohiyati va asosini ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlari tashkil etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar - bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir. Ular takror ishlab chiqarish munosabatlari yoki iqtisodiy munosabatlar deb ham ataladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining muayyan darajasi ishlab chiqarish munosabatlarining u yoki bu turini taqozo qiladi. Muayyan taraqqiyot darajasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari muayyan turining birligi va o'zaro ta'siri ishlab chiqarish usulini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish munosabatlari faqat ishlab chiqaruvchi kuchlar bilangina o'zaro aloqada bo'lib qolmaydi. Ular bir vaqtda bazis ham hisoblanib, uning ustida ishlab chiqarish munosabatlarining ushbu tizimiga xos bo'lgan alohida siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlarning alohida turlari qad ko'taradi. Ana shularning yig'indisi jamiyatning ustqurmasini tashkil etadi. Siyosat, huquq, ahloq va ustqurmaning boshqa elementlari ham faol rol o'ynaydi, o'zlarini vujudga keltirgan ishlab chiqarish munosabatlariga, ular orqali esa jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga ham aks ta'sir ko'rsatadi.





Ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi ijtimoiy iqtisodiy formasiyani tashkil etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy formasiyaning tarkibiy tuzilishini 1-chizma orqali yaqqol tasavvur etish mumkin.

Bu yerda ikki holatga e'tibor berish muhim. Birinchidan, ishlab chiqarish munosabatlari mustaqil, alohida tizimni tashkil qilmaydi. U ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ham, shuningdek, ustqurma bilan ham har doim o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ikkinchidan, turli formasiyalarda o'ziga xos ishlab chiqarish munosabatlari amal qiladi va bu esa har bir formasiyaga mos keluvchi ishlab chiqarish usulini belgilab beradi.


Insoniyat jamiyati tarixida bir-biri bilan izchil almashinib turgan qator ishlab chiqarish usullari va shunga muvofiq ijtimoiy iqtisodiy formasiyalar ajralib turadi. Ishlab chiqarish usullari almashinishining klassik namunasi.

Evropada namoyish qilingan deb hisoblanadi. Evropa hududida bir biri bilan almashinib, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal va kapitalistik munosabatlar izchil tarkib topdi. Boshqa qit'alarga kelganda esa, bu yerda kapitalizmga bo'lgan davrda ana shu marralarning hammasi aniqroq qayd etilgan. Osiyo, Afrika, Avstraliyada Evropa mustamlakachiligining ta'siri seziladi. Adabiyotlarda Osiyocha ishlab chiqarish usuli deb atalmish usul haqida ham qayd qilinadi. Bu usulning shakllanishida mamlakatlarning katta turkumiga xos bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarning sug'orish tizimlarini markazlashtirilgan tarzda tartibga solib turish va davlatning ana shu sharoitlarda alohida roli bilan bog'liq sifat xususiyatlari aks etadi.

Iqtisodiy fanda ijtimoiy taraqqiyotni sivilizasiyaning tarixiy rivojlanish tiplari natijasi sifatida o'rganish ham muhim o'rin tutadi.

«Sivilizasiya» so'zi lotinchada fuqarolarga oid, ijtimoiy degan ma'nolarni anglatadi. Bu tushuncha fanga fransuz faylasuflari tomonidan nisbatan yaqin vaqt ikki asr oldin - kiritilgan bo'lib, tafakkur va erkinlik hukmron bo'lgan jamiyatlarni tavsiflash uchun qo'llanilgan. Bugungi kunda mazkur tushuncha quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

- jamiyat madaniyati darajasini baholash;
- yovvoyilik davri o'rniga kelgan kishilik jamiyati rivojlanish bosqichini tavsiflash (L.Morgan, F. Engels);
- biqiq guruhlar, xalqlar va davlatlar taraqqiyotining madaniy-tarixiy sikli (N.V.Danilevskiy, A. Toynbi);
- madaniyat taraqqiyotining so'nggi bosqichi, uning tugashi fazasi (O.Shpengler);
- ijtimoiy hayot asosiy tarkibiy qismlari inson salohiyati, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usuli, atrof-muhitning majmui.' Umuman olganda sivilizasiya





rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning oqilona tashkil etilgan tuzumi sifatida talqin etiladi.

Jamiyat taraqqiyotini sivilizasiya nuqtai nazaridan o'rganishda sivilizasiyalarning almashuvi nazariyasi muhim o'rin tutadi. Bu nazariya tarafdorlari quyidagi etti bosqichdan iborat sivilizasiyani ajratib ko'rsatadilar:


- 1) davomiylik muddati 30-35 asmi o'z ichiga olgan neolit davri;
- 2) davomiylik muddati 20-23 asrni o'z ichiga olgan sharqiy quldorlik davri (bronza asri);
- 3) davomiylik muddati 12-13 asrni o'z ichiga olgan antik davr (temir asri);
- 4) davomiylik muddati 7 asrni o'z ichiga olgan erta feodal davri;
- 5) davomiylik muddati 4,5 asrni o'z ichiga olgan industrlashishdan oldingi davr;
- 6) davomiylik muddati 2,5 asrni o'z ichiga olgan industrial davri;
- 7) davomiylik muddati 1,3 asrni o'z ichiga olgan yuqori industrlashish davri.

Bu qayd qilingan bosqichlardan ko'rinib turibdiki, ushbu nazariyada turli qarashlar va yondashuvlarni aralashtirish holatiga yo'l qo'yilib, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini ajr atishning aniq bir mezoni yoki belgisi mavjud emas. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga texnologik yondashuv ham ma'lum bir oqim hisoblanadi. Ular jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida ro'y berayotgan o'zgarishlar ko'lami va xususiyatini yaxshiroq tushunib olish uchun ishlab chiqarishning turli texnologik usullarini tahlil etish, mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi rivojlanish tarixiga murojaat qilish zarur deb hisoblaydilar.

Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan va birgalikda ishlab chiqarishning texnologik usuli deyiladi.

Ular o'rtasidagi chegaralami jamiyat taraqqiyoti tarixining yirik bosqichlari ajratib turadi. Bir texnologik ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o'tish asosan mehnat vositalarining xususiyatidagi o'zgarishlar, fan va texnika taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish texnologik usullarining dastlabki uchta bosqichi alohida farqlanadi. Bular oddiy kooperasiya, manufaktura va mashinalashgan ishlab chiqarishdir. Oddiy kooperasiya - bu bir xil ishni yoki xizmat vazifasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shakldagi uyushishi, birgalashib ma'lum tartib asosida ishlaydigan kishilar guruhidir. Kooperasiyaning yakka tartibdagi hunarmandchilik ishlab chiqarishiga nisbatan afzalliklari quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:






- 1) ko'plab ishchilarning birgalikdagi mehnati ishchi kuchidagi alohida tafovutlarning yo'qolishiga, ularning sifat jihatidan bir xillikka olib keldi;
- 2) bino va inshootlardan birgalikda foydalanish natijasida yoqilg'i, yoritish va boshqa shu kabi xarajatlarning kam sarflanishi mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish vositalarining tejalishiga olib keldi;
- 3) birgalikdagi mehnat bellashuvni keltirib chiqarib, mehnat unumdorligini oshirdi. Mashinalashgan ishlab chiqarishga olib boruvchi yo'lda manufaktura, ya'ni mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo'lmagan sharoitdagi kooperasiya muhim rol o'ynaydi. Manufaktura davrida ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi. Yalpi ishchi kuchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa yalpi ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi. Bunda oddiy kooperasiyadagidek qo'l mehnatiga va unga asoslangan qurolga tayanadi.

Manufaktura ixtisoslashtirilgan qurol va asboblarni vujudga keltirib hamda ishchini tor operatsiyalarni bajarishga bog'lab, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish uchun zarur shart-sharoit tayyorlaydi. Bu davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatning mazmuni va holatiga, ishlab chiqarishning butun texnologik usulida, iqtisodiy munosabatlarda va butun ijtimoiy hayotda ham tub o'zgarishlar ro'y beradi. XVIII asrning so'nggi 30 yili ichida boshlangan sanoat revolyusiyasi natijasida yirik mashinalashgan ishlab chiqarish vujudga keldi.

Kooperasiyaning bu shakli xuddi manufaktura singari, mehnat taqsimotiga asoslanadi, lekin undan mashinali mehnatga asoslanishi bilan tubdan farq qiladi. Fabrika ichidagi mehnat taqsimoti tamomila mashinalarning vazifalari bilan belgilanadi.

Mashinalar tizimiga asoslangan fabrika bugun ham ko'p jihatdan ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy bo'g'ini rolini saqlab kelmoqda. Shu bilan birga fan va texnikadagi inqilobiy o'zgarishlar, 1. EHMning paydo bo'lishi va rivojlanishi, yagona axborot tizimlarining yaratilishi, ishlab chiqarish umumlashuvining yanada o'sishi uning texnikaviy bazisini jiddiy ravishda o'zgartirib yubordi.

Fan-texnika, texnologiya va axborot tizimidagi o'zgarishlarga qarab ko'pchilik olimlar, masalan, R.Aron, Dj. Gelbreyt, U.Rostou va boshqalar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini uch bosqichga: industrilashgungacha bo'lgan jamiyat, industrilashgan jamiyat, yuqori industrilashgan yoki axborotlashgan jamiyatlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadilar.





Bunda ular industrilashgungacha bo'lgan jamiyatning asosiy belgilari sifatida: a) aholining asosan, qishloq xo'jaligi bilan bandligi; b) qo'l mehnatining hukmronligi; v) mehnat taqsimotining juda sayozligi (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo, boshqaruv va boshqalar); g) natural xo'jalikning hukmronligini ko'rsatadi.

Jamiyat taraqqiyotining ikkinchi muhim bosqichi industrilashgan jamiyatning asosiy belgilari deb: a) ishlab chiqarishning mashinalashganligi; b) sanoatning fan-texnika yutuqlari asosida rivojlanishi, unda ishchilar sonining ko'payishi; v) shahar aholisining qishloq aholisiga qaraganda ko'payishi va boshqalar.

Taraqqiyotning uchinchi muhim bosqichi yuqori darajada industrilashgan jamiyatning asosiy belgilari: a) xizmat ko'rsatish sohasining yuksak darajada rivojlanishi; b) ishchi kuchining asosiy qismi (60-70%) shu sohada band bo'lishi; v) fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi, fan xodimlarining va malakali mutaxassislar rolining oshishi; g) iqtisodiyotning hamma sohalarida kundalik hayotda axborot va hisoblash texnikalarining keng qo'llanilishi; d) tovarlar va xizmatlar sifatiga putur etkazmasdan iqtisodiy resurslarning hamma turlarini tejash imkonini beradigan yangi texnika va texnologiyalarning keng qo'llanilishi va boshqalar.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, texnika va texnologiyadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotida asosiy rol ni o'ynaydi va tashkiliy, boshqaruv tizimlarining, ishchi-xizmatchilar tarkibining o'zgarishiga, mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi. Lekin bu texnik o'zgarishlarga qarab bir tomonlama yondashuv bilan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini aniqlab bo'lmaydi. Ayniqsa, iqtisodiy tizimlar va ularning holatlarini bilishda ham texnik, ham ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning birgalikda olib, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini va shu dialektik aloqadorlik hamda ta'sir natijasida sodir bo'ladigan taraqqiyot qonunlarini o'rganish zarurdir.

Xulosa: Jamiyat taraqqiyotiga, jumladan texnika va texnologiyaning rivojiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kuchli ta'sirini shunda ko'rish mumkinki, bir necha ming yillab rivojlanmay yotgan texnika va texnologiya taraqqiyoti tovar xo'jaligi va bozorning vujudga kelishi bilan gurgirab o'sib ketdi. Texnika taraqqiyotining hamma bosqichlari, ya'ni oddiy kooperasiya, manufaktura, mashinalashgan, ya'ni industrilashgan ishlab chiqarish, yuqori darajadagi industrilashgan, axborotlashgan jamiyat bosqichlari keyingi 250-300 yilga, ya'ni tovar xo'jaligi rivoj topgan davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham keyingi paytda ko'pgina iqtisodchilar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini iqtisodiy tizimlarga bo'lib o'rganadilar.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Elmirzayev, N. Tursunova, N. Shavkatov M 70 Moliya bozori: Darslik - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.-324b.
2. Sh. Sh. Shodmonov, R. X. Alimov, T. T. Jo'rayev. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, "Moliya" nashriyoti, 2002yil. 416b.
3. Pul va banklar: O'quv qo'llanma / Sh. Z. Abdullayeva; - T.: "Iqtisodiyot-Moliya", 2018.-756b.

